



# NUTQ O'STIRISH FAOLIYAT ISHLANMALARI

*(KATTA GURUH)*



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI  
MAKTABGACHA TASHKILOTLAR XODIMLARINI QAYTA  
TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH RESPUBLIKA  
O'QUV METODIKA MARKAZI

*Maktabgacha yoshdagি bolalar nutqini o'stirish  
(katta guruh uchun nutq o'stirish bo'yicha  
faoliyat ishlanmalar)*

# KATTA GURUH



Mualliflar: Prof. F.R. Qodirova,

MMXQTMORO'MM metodistlari:

M. Fayzullaeva, Z. Rahimova, M. Rustamova, Z. Fayzieva

Taqrizchilar:

G.Q.Jalolova-Toshkent sh. Yunusobod tumani 47-MTT logopedi

Rizaeva X. U- Toshkent sh. Yunusobod tumani 460-MTT mudirasi

A.Raupova-206 MTT- Maktab majmuasi metodisti

S. Majidova- Toshkent sh. Uchtepa tumani 19-MTT metodisti

Muharir: Sh. Shomansurov

Nashr uchun

mas'ul: M. Sh. Rasulova-p.f.n. , dotsent

Ushbu metodik qo'llanma 5-6 yoshdagi maktabgacha yoshdagi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish va savodga tayyorgarlikda tarbiyachilar va ota-onalarga yordam berish maqsadida ishlab chiqildi. Qo'llanmada katta guruh uchun bir yillik faoliyatlar ishlanmalari to'liq yoritib berilgan.

## Kirish

Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning birinchi bo’g’ini hisoblanib, u maktabda o’qish uchun tayyor, sog’lom bolani tarbiyalashni ko’zda tutadi.

Bolani maktabda muvaffaqiyatli ta’lim olishga tayyorlashda, unga ona tilining barcha boyliklarini egallab olish uchun tegishli shart-sharoitlar yaratish zarur.

Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo’yiladigan Davlat talablarining asosiy yo’nalishlaridan biri nutq, o’qish va savodga tayyorgarlikdan iborat. Bu umumiy vazifa – “Nutq, o’qish va savodga tayyorgarlik” quyidagi maxsus vazifalardan iborat: nutqning tovush madaniyatini tarbiyalash, lug’atni boyitish, mustahkamlash va faollashtirish, nutqning grammatik to’g’riligini takomillashtirish, og’zaki (dialogik) nutqni shakllantirish, ravon nutqni rivojlantirish, badiiy so’zga qiziqishni tarbiyalash, savodga tayyorgarlik.

Ushbu metodik qo’llanma 5-6 yoshli bolalarning og’zaki nutqini rivojlantirish va savodga tayyorlashda tarbiyachiga va ota-onalarga yordam berish maqsadida tayyorlangan bo’lib, yil davomida o’tkaziladigan 72 ta faoliyat pedagogik texnologiya talablarini inobatga olib yoritib berilgan. Mavzu mazmuni faoliyat davomida bolalarda grammatik mashqlar, turli interfaol o’yinlar yordamida mustahkamlanadi.

faoliyat ishlanmalarida 3-4 vazifa: bog’langan nutq, grammatika, lug’at, tovush madaniyati, savodga tayyorgarlik vazifalari o’zaro uzviy bog’liq holda olib borishga harakat qilindi. Bu ish uslubi bolalarning dastur vazifalarini tezroq egallahslariga yordam beradi. faoliyat ishlanmalari bolalarni mustaqil hikoya tuzish, rasmga qarab tarbiyachi bergen mazmun asosida hikoyalar tuzish va qayta hikoya qilish va savodga tayyorlashga o’rgatishga qaratilgan. Unda bolalarning mustaqilligi va faolligini oshirish maqsadida har xil ta’lim - tarbiyaviy ish usullaridan: o’yin: ta’limiy, sahnalashtirilgan; og’zaki: suhbat, savol- javob, hikoya qilish, tushuntirish, bahs- munozara; ko’rgazmalilik: rasmni ko’zdan kechirish, kuzatish, sayr, sayohat; amaliy: mashq qildirish, amaliy topshiriq, taqqoslash va turli o’yinlardan foydalanildi va ular yordamida mustahkamlandi.

Barmoqlar mashqi qiziqarli, maroqli bo’lgani uchun faoliyatda tetiklashtiruvchi mashq sifatida olindi.

Qo’llanmadan tarbiyachilar, ota-onalar va maktabgacha ta’lim yo’nalishi talabalari bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash jarayonida ijodiy foydalanishlari mumkin.

## Nutq o'stirish va savodga tayyorgarlik bo'yicha taqvim reja

1-yarim yil					2-yarim yil					YIL DAVOMIDA	
IX	X	XI	XII	jami	I	II	III	IV	V	jami	
8	8	8	8	32	8	8	8	8	8	40	72

Nº	OYI	Faoliyat MAVZUSI
1	Sentyabr	«Mustaqillik bayrami» nomli surat asosida hikoya tuzish. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
2		“Lolaning bog'chadagi birinchi kuni” mavzusida ijodiy hikoya tuzish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
3		“Quvnoq tilcha”ertagi
4		Asarni qayta hikoya qilish “Bo’ri bilan echki” o’zbek xalq ertagi Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
5		“S” tovushini to’g’ri talaffuz qilish
6		Asarni qayta hikoya qilish “Ikki echki” o’zbek xalq ertagi Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
7		Nutqda nafas olish va nafas chiqarishni rivojlantirish
8		“ Olma terimida” surati ustida suhbat Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
9	Oktyabr	“Quvnoq tilcha”ertagi
10		“Kuzda kattalar mehnati” surati ustida suhbat Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
11		Rasmlarni nomlash (“S” tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish
12		Suratlar bo'yicha hikoya qilish: “Uy hayvonlari” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
13		Asarni qayta hikoya qilish «Sanobar» hikoyasi
14		Nutqda nafas olish va nafas chiqarishni rivojlantirish
15		Shaxsiy taassurotlar bo'yicha hikoya tuzish. “Bizning o'ynichoqlarimiz” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
16		Asarni qayta hikoya qilish «Quyon va tipratikan» masali
17	Noyabr	Jamoa hayotidan hikoya tuzish. “Bizning jonli burchagimiz” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
18		“Z” tovushini to’g’ri talaffuz qilish
19		Asarni qayta hikoya qilish «Sher bilan sichqon» ertagi
20		Rasmlarni nomlash (“Z” tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish
21		Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish: “Bizning oila” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
22		“Sh” tovushini to’g’ri talaffuz qilish
23		Asarni qayta hikoya qilish. “Tulki bilan Turna” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
24		Asarni qayta hikoya qilish «Non isi» rivoyati
25	Dekabr	“Qish” mavzusida tasviriy hikoya tuzishga o'rgatish

		Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
26		Asarni qayta hikoya qilish «Terak bilan majnuntol» masali
27		Ijodiy hikoya tuzish: “Tanlangan o'yinchoqlar bo'yicha hikoya tuzish” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
28		Rasmlarni nomlash (“Sh” tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish
29		Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish “Dam olish kuni” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
30		Asarni qayta hikoya qilish. T. Rasulov “Shaftoli”hikoyasi Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
31		“T” tovushini to'g'ri talaffuz qilish
32		Surat bo'yicha hikoya tuzish. “Tish yuvish odobi” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
33	Yanvar	Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish “Men qish bayramini qanday o'tkazdim?” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
34		“D” tovushini to'g'ri talaffuz qilish
35		“14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni” surati asosida hikoya tuzish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
36		Rasmlarni nomlash (“D” tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish
37		M.Murodovning “Ikki niyat” hikoyasi asosida qayta hikoya qilish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
38		“Dasturxon odobi” surati bo'yicha hikoya tuzish
39		Shaxsiy hayot (tajriba)dan hikoya tuzish “Men qushlarni ovqatlantirdim”
40		Asarni qayta hikoya qilish. “Tulki bilan qizcha” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
41	Fevral	A.Avloniyning “Bolari va pashsha” asarini qayta hikoya qilish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
42		“R” tovushini to'g'ri talaffuz etish
43		A.Navoiyning “Bir kabutar” hikoyati asosida qayta hikoya qilish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
44		A.Navoiyning “Sher bilan Durroj” asari asosida qayta hikoya qilish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
45		Jamoa hayotidan hikoya tuzish. “Bizning bog'cha” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
46		Asarni qayta hikoya qildirish. “Alisher va bulbul” rivoyati Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
47		Rasmlarni nomlash (“R” tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish
48		Surat bo'yicha hikoya tuzish. “Qo'l yuvish odobi” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
49	Mart	“K” tovushini to'g'ri talaffuz etish

50		O'rol Tansiqboevning "O'zbekistonda bahor" suratini ko'zdan kechirish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
51		Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish: "Onamlarning bayrami"
52		R.Azizxo'jaevning "Oyijon" hikoyasi asosida asarni qayta hikoya qilishga o'rgatish. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
53		Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish. "Men Navro'z bayramini qanday o'tkazdim?" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
54		Rasmlarni nomlash ("K" tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish
55		Jamoa hayotidan hikoya tuzish: "Bog'chamdagi yoqtirgan o'yinlarim" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
56		Mazmunli suratlar asosida hikoya tuzish. "Bahorda kattalar mehnati" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
57	Aprel	"Ch" tovushini to'g'ri talaffuz etish
58		M.Murodovning "Ikki xil yordam" hikoyasi asosida asarni qayta hikoya qilish. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
59		Surat bo'yicha hikoya tuzish. "Metroda" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
60		Rasmlarni nomlash ("Ch" tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish
61		"Fil bilan xo'roz" o'zbek xalq ertagi asosida hikoya qilishga o'rgatish
62		Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish. "Tug'ilgan kun" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
63		"F" tovushini to'g'ri talaffuz etish
64		Asarni qayta hikoya qilish Yashar Xondamir "Qalam" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
65	May	Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish. "Men dadamga yordamchi" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
66		Rasmlarni nomlash ("F" tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish
67		Maxmud To'ychievning "Zarg'aldoq" hikoyasini qayta hikoya qilishga o'rgatish
68		H tovushini to'g'ri talaffuz qilish.
69		Shaxsiy hayot (tajriba)dan hikoya tuzish "Tsirkda" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
70		Rasmlarni nomlash ("H" tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish
71		Jamoa hayotidan hikoya tuzish: "Gulzorlarimizdagi gullarni qanday etishtirdik. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq
72		"Asalari hech narsa demabdi" hikoyasi asosida qayta hikoya qilishga o'rgatish. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq

## 1-Faoliyat

**Mavzu:** «Mustaqilligimizning 31 yillik bayrami» mavzusida suhbat

**Maqsad:** Bolalarni surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suhbat paytida faol ishtirok etishga undash, suratda aks ettirilgan voqealarni izchil bayon qilishni, mavzu bo'yicha berilgan savollarga tushunib, qisqa va to'liq javob berish, o'rtoqlarining berayotgan javoblariga e'tibor berish malakasini takomillashtirish. Suhbat davomida bolalar qalbida mustaqillik bayramiga nisbatan muhabbat, milliy g'urur hissini tarbiyalash.

**Vazifalar:**

«Mustaqillik bayrami», «Milliy bog'» mavzularida lug'atni faollashtirish.

Voqea-hodisalarning muhim belgilarini ajratishga, solishtirishga va umumlashtirishga, ularni ifodalash uchun aniq so'zlarni tanlashga o'rgatish.

Bog'lanishli nutq—hikoya tuzish ko'nikmalarini shakllantirish.

Nutqning ifodalilagini tarbiyalash.

Gap. Gapni so'zlarga bo'lishga o'rgatish.

**Kutilayotgan natijalar:**

Surat bo'yicha mazmunli hikoya tuzishga, suratdagi tasvirdan oldingi voqealarni mustaqil o'ylashga o'rganadilar.

Grammatik jihatdan to'g'ri so'zlashga intiladi

**Kerakli jihozlar:**

«Mustaqillik maydoni- tinchlik ramzi» surati

**faoliyatning borishi.** Surat ilib qo'yiladi va mazmuni bo'yicha suhbat o'tkaziladi.

-Bolalar, Vatanimizda har yili 1-sentyabr kuni mustaqillik bayrami bo'ladi. Bayram kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov xalqimizni bayram bilan tabriklaydilar. So'ng maydonda tomosha bo'ladi. Bolalar, siz ham bayramda saylga chiqdingizmi?

Qaerga, kim bilan bordingiz, qanday tomoshalarni ko'rdingiz?

Hozir biz «Mustaqillik bayrami» nomli suratni ko'rib, surat bo'yicha hikoya tuzishni o'rganamiz. Suratga diqqat bilan qarang.

Suratda kimlar tasvirlangan?

Bolalar qiyofasida qanday holat ifodalangan?

Bolalarning qo'llarida nimalar bor? (bayroqcha, shar, gul)

Kimlar doira chalyaptilar?

Kimlar raqsga tushyaptilar? (kattalar, bolalar)

Bayram saylida siz ham ishtirok etdingizmi?

Bayramda nimalarni ko'rdingiz?

Milliy bog'da qanday tomoshalarni ko'rdingiz?

### Jismoniy daqiqa

Eshitish diqqatini rivojlantirish maqsadida harakatli o'yin o'rgatish

#### Tarbiyachi so'zi

Oyog'imiz taq – taq – taq, Qo'limiz chapak – chapak.

Boshimiz sarak – sarak

Qo'limizni ko'tardik,

Sekingina tushirdik.

Endi ehtiyyot bo'lib

Joyimizda aylandik

Qo'lni yonga tushirdik

Doira bo'ylab yugurdik

Kelinglar, endi surat asosida hikoya tuzamiz.(5-6ta bola hikoyalari tinglanadi)

### Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq

Tarbiyachi: Bolalar, biz bir-birimizga o'z fikrimizni qanday bildiramiz?

Bolalar, men sizga savol berdim, siz javob berdingiz.

Sizning savollaringiz ham, bizning javoblarimiz ham nutq deyiladi. Nutqimiz gaplardan tuzilgan. Biz gaplar orqali so'zlashamiz. Gaplar esa so'zlardan tuzilgan. Surat haqidagi bitta gapni aytинг-chi.

(Bog'da chiroyli gullar ochilgan)

Bu gap nimalardan tuzilgan?

(To'g'ri, gap so'zlardan tuzilgan. Kelinglar, gapni birgalikda yana qaytaramiz. Bog'da chiroyli gullar ochilgan). Tarbiyachi bolalar bilan gapni so'zlarga bo'ladi. Gapning birinchi so'zini aytинг.(Bog'da), ikkinchi so'zini aytинг.(chiroyli), uchinchi so'zini aytинг.(gullar), to'rtinchi so'zini aytинг.(ochilgan) Demak, bu gap 4ta so'zdan tuzilgan ekan.

### Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :

- Mustaqillik bayrami qachon bo'ladi?
- Milliy bog'da qanday inshoatlar bor ekan?
- Nutqimiz nimalardan tuzilgan?
- Gap nimalardan tuzilgan?

## **2-faoliyat**

**Mavzu: “Lolanning bog’chadagi birinchi kuni” mavzusida ijodiy hikoya tuzish**

**Maqsad:**

Mazmunini mustaqil ijod qilgan holda hikoya tuzishga o’rgatish.

**Vazifalar:**

Bog’langan nutqni rivojlantirish.Ba’zi otlarni ko’plikda, tushum, qaratqich kelishiklarida turlicha mashq qildirish.So’zlarni bo’g’inlarga bo’lishga o’rgatish

**Kutilayotgan natijalar:**

Bolalarning bog’langan nutqi va tovush madaniyati rivojlanadi.Bolalar ba’zi otlarni ko’plikda, tushum va qaratqich kelishiklarida to’g’ri ishlatishga o’rganadilar.

**Kerakli jihozlar:**

Bog’cha hayotidan rasmlı lavhalar, bolalar kiyimlari va boshqa kerakli rasmlar, hayvonlarning bolasi bilan birga tasvirlangan rasmlar.

**faoliyatning borishi**

Bolalar, bugun biz “Lolanning bog’chadagi birinchi kuni” mavzusida hikoya tuzamiz. Qani bir eslangchi, yaqinda guruhimizda kim yangi keldi. To’g’ri, Aziza keldi. Aziza bilan biz qanday tanishdik? Azizaning kayfiyati qanday edi? Aziza bilan qanday o’ynichoqlar o’ynadinglar? Sayrga qanday chiqdik? Aziza sayrda ko’proq kim bilan o’ynadi? Shu kuni qanday o’yinlar o’ynadik?

Bolalar hikoya qilishda qiyalsalar tarbiyachi hikoya namunasini beradi.

Bir kun Lolanning oyisi uni erta uyqudan uyg’atdi, birga nonushta qildilar. Nonushtadan so’ng Lolanning oyisi unga yangi ko’ylak kiygazdi. “Lola bugun bog’chaga borasan, bog’chada bolalar juda ko’p birga o’ynaysizlar”, - dedi. Lola juda xursand bo’lib ketdi. Lola oyisi bilan bog’chaga kelgan edi, tarbiyachi Feruza opa uni yaxshi kutib oldi. Lola oyisiga kulib “Xayr” deb qoldi. Tarbiyachi Feruza opa Lolani bolalar bilan tanishtirdi. Bolalar Lola bilan birga o’ynashdi, unga o’ynichoqlar berishdi, sayrda birga quvlashmachoq o’yinini o’ynashdi. Lola shu kuni bog’chaga kelganidan xursand bo’ldi.

Tarbiyachi namunasidan so’ng 3 — 4 bola hikoyasi tinglanadi. Hikoya qilishda qiyalganlarga yordam beriladi.

**Tetiklashtiruvchi mashq (ixtiyoriy)**

Tarbiyachi: Guruhimizga qo’g’irchoq Lolaxon mehmon bo’lib keldi. Kelinglar, unga turli hayvonlarni, ularning bolalarining rasmlarini

ko'rsatamiz. Ularning nomlarini o'rgatamiz. Buning uchun "Nimaning bolasi?" o'yinini o'ynaymiz:

Qo'zichoq.. (qo'yning bolasi)

Toychoq.. (otning bolasi)

Uloqcha.. (echkining bolasi)

Mushukcha.. (mushukning bolasi)

Bo'taloq.. (tuyaning bolasi)

Bolalar, Lola hayvon bolalarining qaysi hayvonning bolalari ekanini bilmas ekan. Endi Lolaxon yanada yaxshi bilib olishi uchun "Bolasini topping" o'yinini o'ynaymiz. Men rasm ko'rsataman hamda gapning boshini aytaman, siz rasmda tasvirlangan hayvonning bolasining rasmini ko'rsatasiz va nomini aytasiz.

Mushukning bolasi (mushukcha).

Qo'yning bolasi (qo'zichoq).

Otning bolasi (toychoq).

Echkining bolasi (uloqcha).

Hozir u biz bilan sayrga chiqadi. Lolaga qanday kiyimlarini kiyintiramiz?

(Bolalar: ko'ylagini, kamzulini, tuflisini, paypoqlarini).

**"Qo'ng'izlar va chivinlar" o'yini.** Tarbiyachi: ikki guruuhga bo'linamiz. Birinchi guruuh bolalari chivinlar bo'lishadi, ikkinchi guruuh bolalari qo'ng'izlar bo'lishadi. Qachon men: "Chivinlar uchib ketishdi" deb aytsam, chivinlar xona bo'ylab uchadilar va "zzz..." deb aytishadi. Qachon men: "Qo'ng'izlar uchib kelishdi" deb aytsam, chivinlar o'z joyiga yugurib ketishadi va qo'ng'izlar "jjj..." deb xona bo'ylab uchadilar.

**Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq**

Bolalar, kelinglar, hayvon bolalarining nomlarini bo'g'inga bo'lamiz.

Toychoq so'zini birgalikda chapak chalib bo'g'inga bo'lamiz.

Toy-choq. Ikki bo'g'indan iborat.

Demak, so'zlar bo'g'inlardan tuzilgan ekan. Birinchi bo'g'in (Toy), ikkinchi bo'g'in (choq)

Shu tariqa boshqa hayvon bolalarining nomlarini bo'g'inqarga bo'lish mumkin.

faoliyat yakunida tarbiyachi barcha bolalarni shirin so'zlar bilan rag'batlantiradi.

### **3-faoliyat**

#### **Mavzu: “Quvnoq tilcha” haqida ertak**

**Maqsad:** Bolalarga og’izni, lablarni, tishlarni va tilni, tanglayni ko’rsatish. Tilning asosiy harakatlari bilan tanishtirish: tilni yuqoriga ko’tarish, pastga tushurish, tilni og’iz burchaklariga yo’naltirish.

#### **Vazifalar:**

faoliyat vaqtida har bir bolani diqqat-e’tibor bilan kuzatib, mashqni qanday bajarayotganini tekshirib turish.

#### **Kutilayotgan natijalar:**

Bolalar gapirishimiz uchun bizga nimalar yordam berishini (lablar, til, til uchi, til kuragi, tilning orqa qismi, tishlar, tanglay, og’iz, lablar, tishlar va til) bilib oladilar. Tilning asosiy harakatlarini: tilni yuqoriga ko’tarish, pastga tushurish, tilni og’iz burchaklariga yo’naltirishni mustaqil bajara oladilar.

#### **Kerakli jihozlar:**

“Quvnoq tilcha haqida” ertagi bilan ishlashni mo’ljallash.

**faoliyatning borishi.** Tarbiyachi: Bolalar, qani ayting-chi: “Biz nimamiz bilan gapiramiz?”(og’zimiz bilan). To’g’ri, og’zimiz bilan. Og’zimiz uychaga o’xshaydi. Qani eslab ko’ring-chi bu uychada nima yashaydi? To’g’ri, til. Har bir uyning eshigi bo’ladi. Tilcha yashaydigan uychaning ham eshigi bor. Uning uychasida bitta eshikcha emas, balki ikkita eshikcha bor. Birinchi eshigi-lablar, ikkinchi eshigi – tishlar. Bu uyning shifti ham bor. Bu nima deb ataladi? To’g’ri, tanglay. Biz gapirmaganimizda uychaning ikkala eshikchasi yopiq bo’ladi va tilcha ko’rinmaydi. Hammangiz og’zingizni yoping va bir-biringizni og’zingizga qarang. Tilcha qorong’ida o’tiraverib zerikdi. U ko’chaga chiqib sayr qilib kelmoqchi bo’ldi. Avval til uchini chiqarib, havo qanday ekanligini bilib olmoqchi bo’ldi. Kelinglar, hammamiz shunday qilamiz.(tarbiyachi bolalarni bu harakatni qanday bajarayotganliklarini tekshirib chiqadi). Mana, qanday keng tilcha, hammangiz bir-biringizga qaranglar. Birdan qattiq shamol esdi, tilcha burishdi. Ingichka bo’lib oldi, so’ngra butunlay uychasiga yashirinib, uplash uchun karavatchasiga cho’zildi. (bolalarmi tekshirish). Uyqudan uyg’ongan tilcha mashq qilmoqchi bo’ldi, yuqoriga ko’tarila boshladi.(yuqoridagi tishlar orqasiga), so’ngra pastga tushadi(pastki tishlar orqasiga). (tarbiyachi har bir bolani tekshiradi). Tilcha avval mashqni sekin-sekin bajaradi, so’ngra tez-tez sakray boshladi. U sakraganda shiftga etay-etary dedi, sakrab shiftni til uchi bilan silab qo’ydi. Tilcha mashq qilib bo’lgach, yana ko’chaga chiqmoqchi bo’ldi. Ko’chaga chiqib zinapoyaga o’tirdi(tilning keng oldingi qirrasini pastgi labga qo’yish, bolalar bu harakatni bajarayotganlarida pastki lablarini qiyshaytirmasınlar, pastki tishlarga tegizmasınlar). Bir o’zi o’tiraverib zerikdi, o’ynash uchun ko’chada hech kim yo’q edi. Bolalar yo’qmikin, deb tilcha avval o’ng tomonga, so’ngra chap tomonga qaradi. Hech bir bola yo’q edi. Bolalarmi qidirib uyining atrofida yugura boshladi.(til og’iz atrofida aylanma harakat qiladi). Birga o’ynash uchun bola topdi-sevinganidan sakradi, va tili bilan cho’lpillatdi.(tilni tanglayga yopishtirib, uchi bilan cho’lpillatadi. Bolalar tekshiriladi). Tilcha mazza qilib sayr qilganidan so’ng uyiga ketdi va ikkala eshikni yopdi. Uychasining eshiklari oddiy emas, ikki qavatli. Bular-lablar. Mana

yuqorigisi, mana pastkisi(ko'rsatadi) Lablar ham ko'p harakat qila oladilar. Mana ular ko'p harakat qilib jilmayishdi.Kelinglar hammamiz jilmayamiz, so'ngra ular nimagadur achchiqlandilar va oldinga naychaga o'xshab cho'zildilar(tekshirish)So'ngra lablar biroz ochilib, ikkinchi eshikni ko'rsatishdi. (tarbiyachi tishlarini ko'rsatadi).Mana yuqorigi tishlar, mana bu pastki tishlar. Hamma eshiklarni yopamiz, tilcha juda ham charchadi, uning dam olgisi kelyapti.

### **Jismoniy daqqa**

**“Samolyot”o'yini.** Tarbiyachi: biz hozir samolyot o'yinini o'ynaymiz. Hammamiz samolyotning motorini “RRR”deb yurgazamiz. Bolalar “RRR”deb talaffuz etadilar, qo'llari bilan motorning harakatini ko'rsatadilar va xona bo'ylab yuguradilar. Motorni yurgazdik va samalyot baland-baland uchib ketdi. U bizga ko'rinxaydi. Faqat “LLL”deb guvillashi eshitiladi. Bolalar “LLL”deb talaffuz etadilar.

Tarbiyachi: Bolalar yana bizning ovozimiz ham bor-a! U ham uychada yashaydi.Biroq uning uychasi og'izda emas, bo'yinda(ko'rsatadi) Ba'zan ovoz uxlaydi va sekingina pishillaydi, uning pishillashi eshitilmaydi(tarbiyachi “S” tovushini talaffuz etadi So'ngra bolalar “S” tovushini talaffuz etadilar.Qo'llarining orqa tomonini bo'yinlariga qo'yib, ovoz uxlayaptimi yoki yo'qmi tekshirib ko'radilar). Ovoz uyqudan turgandan keyin ashula aytadi.Ushunday ovozda ashula aytadiki, hatto uchaning devorlari titray boshlaydi(bola “Z” tovushini bo'yinga qo'l kaftining orqa tomonini qo'yib talaffuz etadi. Bu bilan ovoz uxlayaptimi yoki yo'qmi tekshiriladi.Xuddi shu tariqa bolalar ikki – uch marta “S” va “Z” tovushini navbatma-navbat talaffuz etadilar va tovush uxlayaptimi yoki ashula aytyaptimi aniqlashadi . Bolalar, bugun biz ko'p narsalarni bilib oldik).

### **Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :**

- Biz nimamiz bilan gapiramiz?” (og'zimiz bilan)
  - Og'zimiz uychaga o'xshaydi, bu uychada nima yashaydi?(til)
  - Tilcha yashaydigan uchaning nechta eshikchasi bor? (ikkita)
  - Uyning shifti nima deb ataladi? (tanglay)
- Demak, gapirishimiz uchun bizga nimalar yordam beradi?  
(lablar,til, tishlar, tanglay, tovush)

## **4-faoliyat**

**Mavzu: “Bo’ri bilan echki” ertagi asosida asarni qayta hikoya qilishga o’rgatish**

**Maqsad:**

Asarni mazmunli, mantiqiy izchillikda aniq va tasviriy ifodalardan foydalangan holda hikoya qilishga o’rgatish.

**Vazifalar:**

Bog’langan nutqni rivojlantirish.Ot va sifatlardan to’g’ri foydalanish.

Tovush madaniyati.Nutqning ifodaliligin tarbiyalash. So’zdan tovushni ajratishga o’rgatish.

**Kutilayotgan natijalar:**

Bolalarning boglangan nutqi va tovush madaniyati rivojlanadi.

Bolalar nutqda ot va sifatlarni to’g’ri ishlatishga o’rganadilar. So’zdan tovushni ajratishga o’rganadilar.

**Kerakli jihozlar:**

Hayvonlar tasviri

Ertakni sahnalaشتish uchun liboslar

**faoliyatning borishi**

Tarbiyachi hayvonlar tasviriga bolalar e’tiborini qaratib so’raydi:

1. Bolalar, suratda qaysi hayvon tasvirlangan?

2. Echki haqida qanday ertaklarni bilasiz?

Hozir, sizlarga “Bo’ri bilan echki” ertagini o’qib bermoqchiman. Siz eshitishni hohlaysizmi? (Tarbiyachi ertakni ifodali qilib o’qib beradi va asar mazmuni bo’yicha suhbatlashadi).

1. Echki nima uchun bo’riga duch keldi?

2. Bo’ri bilan echki nimalar haqida suhbatlashdilar?

3. Echki qanday hiyla o’ylab topdi va nima qildi?

4. Bo’ri qay ahvolga tushib qoldi?

5. Bo’rining echkiga aytgan javobini kim o’ziga o’xshatib aytib beradi?

6. Echkining bo’riga aytgan javobini kim ohangli qilib aytadi?

7. Bo’rining hushidan ketib o’ziga kelgan ahvolini achinarli qilib kim aytib beradi?

Asarni tarbiyachi yana bir bor o’qib beradi. Bolalarga yaxshilab tinglashlarini, eslab qolishlarini, keyin so’zlab berishlarini aytadi.

Endi kim ertakni boshidan gapirib beradi?

Ertakni xuddi mashq qilganimizdek ta’sirli, ifodali qilib so’zlab berishingiz kerak (3–4 bolaning javobi eshitiladi).

**“O’ylang, birgalikda o’zaro fikr almashing” o’yini asosida grammatick mashq.**

Bu o’yinda bolalar berilgan topshiriq ustida birgalikda fikr yuritishga, o’z fikrlarini ixcham, aniq ifodalashga jalb qilinadi. Tarbiyachi bergan topshiriq bo’yicha bolalar juft- juft bo’lib o’z fikrlarini o’rtoqlashadilar va birgalikda bir xulosaga keladilar. Buning uchun tarbiyachi bolalarni guruhlarga taqsimlab olishi kerak. Bolalarni guruhlarga taqsimlashda bitta tez qabul qiladigan, bitta sekin qabul

qiladigan bolani tanlab olishi kerak. Guruhlar ishlayotgan vaqtida tarbiyachi bolalarga yordam berishi, tushunmagan joylarini tushuntirib berishi kerak.

1. Bo'ri ertakda qanday tasvirlangan? U haqida qanday so'zlash mumkin? (ochko'z, berahm, yovuz, qo'pol).
2. Berahm so'ziga qarama-qarshi ma'nodagi so'z toping (rahmdil, ko'ngilchan, shafqatli).
3. Echki haqida nima deyish mumkin? (dono, aqli, qo'rmas, tadbirkor).
4. "Qo'rmas" so'ziga yaqin so'zlar toping (botir, jasur, mard).

### **Jismoniy daqiqa**

#### **"Bo'ri va echkilar" harakatli o'yin**

Tarbiyachi: bolalar siz "echkilar" bo'lasizlar. Echkilar o'tloqda sakrab-sakrab o'tlab yurishadi. Bir bola "bo'ri" bo'ladi. Qachon men: "Echkilar o'tloqda yurishibdi" deb aytsam, echkilar xona bo'ylab sakrab yuradilar va "me-me..." deb aytishadi. Qachon men: "Bo'ri" deb aytsam, echkilar o'z joyiga yugurib ketishadi. Bo'ri ularni tutishga harakat qiladi, o'yinda shu so'zlardan foydalansha bo'ladi.

Echkilar sakrab yurar  
Ko'm-ko'k maysa o'tloqda  
Qo'rquvdan joni halak  
Nazar solar atrofga

Matndagi so'zlarga qarab bolalar harakat qilishadi. Shundan so'ng bo'ri echkilarni quvlab ketadi. Ushlangan bola bo'ri rolini ijro etadi.

#### **Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq**

Bolalar, biz hozir bo'ri, echki haqida juda ko'p so'zlar aytdik. So'zlar bo'g'nlardan tuzilgannini bilib olgan edik. Hozirgina aytilgan so'zlarni bo'g'nlarga bo'lib ko'ramiz. (Bo'ri, ech-ki, och-ko'z, do-no) Bugun esa so'zdan tovushni ajratishni mashq qilamiz. Tovush so'z yoki bo'g'nlardan ajratiladi. Bo'g'in yoki so'zdan unli tovushni ajratish qulay. Men bo'g'nlarni talaffuz qilaman, qaysi tovushni cho'zib aytayotganimni siz aytasiz: ooo-na. To'g'ri "O" tovushini cho'zib aytdim. "O" - bu tovush. Birgalikda "O" tovushini qaytaramiz. Yana ikkinchi bo'g'inda qaysi tovushni cho'zib aytganimni topasiz: o-naaa (a tovushini). To'g'ri, endi shu 2-bo'g'indagi boshqa tovushni aniqlang: o-nna ("N" tovushi). Demak, so'zda nechta tovush bor ekan? (3ta) Ular qaysi tovushlar?

("o", "n", "a") So'z, bo'g'in nimalardan tuzilar ekan? (Tovushlardan) Ona so'zida qaysi tovushlar cho'zib talaffuz qilindi? Men "o", "a", "n" tovushini talafuz qildim, siz uni eshitdingiz. Demak, tovushlarni talaffuz qilamiz ya'ni aytamiz va eshitamiz. Birgalikda qaytaramiz.

(tovushlarni talaffuz qilamiz ya'ni aytamiz va eshitamiz.)  
faoliyat yakunida barcha bolalarni rag'batlantirish.

## 5- faoliyat

**Mavzu:** “s” tovushini to’g’ri talaffuz qilish

**Maqsad:**

“s” tovushini to’g’ri talaffuz qilishga o’rgatish va bo’g’in, so’zlarda mustahkamlash.

**Vazifalar:**

“s” tovushini o’rni aniqlash: so’z boshi, o’rtasi va oxirida kelishini aytish, so’zlarni bo’g’inlarga ajratish, “s” tovushini eshitib farqlashga o’rgatish, “s” tovushli so’zlar bilan bolalar nutqini boyitish. Savollarga to’liq va aniq javob berishga o’rgatish.

**Kutilayotgan natijalar:**

“s” tovushining undosh tovush ekanligini, tovush o’rnini aniqlashni bilib oladilar. “s” tovushiga oid so’zlar ayta oladilar.

**Kerakli jihozlar:**

s tovushiga oid rasmli suratlar

“Bo’g’inlardan so’z tuzing» ta’limiy o’yin uchun materiallar

**faoliyatning borishi:**

Tarbiyachi: bugun bolalar “s” tovushi haqida suhbatlashamiz. s tovushini talaffuz qilganimizda, “s” tovushi unli tovushga o’xshab cho’ziladi, ammo havo erkin chiqa olmay zo’rg’a tishlar orasidan chiqadi. Til va tish tegib turgan joy to’siq bo’ladi. Shuning uchun to’siqqa uchraydi, qisqa aytildi, “s” tovushini aytganimizda ovoz bilan shovqin ham eshitiladi.

Demak, “s” undosh tovush ekan. Tovushni eshitamiz, talaffuz qilamiz. Diqqat bilan eshititing “s” tovushini talaffuz qilganimda chapak chalasiz.

- “S”, “r”, “l”, “S”, “a”, “o”, “u”, “S”, “sh”, “z”, “S”.....

- “s” tovushiga oid so’zlar topishga harakat qilamiz: soat, sava, savat, svetofor.(bolalar qiyalsalar rasm ko’rsatish mumkun)

- Aytigaln so’zlardagi “s” tovushini o’rnini aniqlaymiz.

Men aytaman, siz aniqlaysiz: Sigir Men shu so’zni qayta aytaman, siz birinchi tovushni aytasiz: s-s-sigir, Demak, Sigir so’zida “s” tovushi so’zning boshida kelyapti; men boshqa so’zni aytaman, siz “s” tovushini o’rnini aniqlang: a-s-s-s-al, demak, asal so’zida “s” tovushi so’zning o’rtasida kelyapti. Men boshqa so’z aytaman diqqat bilan eshititing: atlas-s-s demak, at-las-s-s so’zida “s” tovushi so’zning oxirida kelyapti.

Endi o’zingiz mustaqil “s” tovushi ishtirok etgan so’zlarni toping va o’rnini aniqlashga harakat qiling. Bolalar aytgan so’zlarini chapak chalish orqali bo’g’inlarga bo’ladilar.

**Tetiklashtiruvchi mashq**

Bolalar doira bo’lib turib oladilar. Bolalar qo’llarini harakatlantirib tarbiyachi bilan birga talaffuz qiladilar: Nasosdan havo chiqyapti va xushtak chalyapti: ”s-s-s-s-s-s”

“s” tovushi ishtirok etgan bo’g’inlarni talaffuz qilish.

Tarbiyachi so, si, sa, su, so’ bo’g’inlarini talaffuz qilib, bolalarga o’zi namuna ko’rsatadi. Bolalar tarbiyachi ketidan xo’r bo’lib aytadilar. So’ng yakka-yakka ayttiriladi.

SA- SA- SA


SU-SU-SU

SA- SA- SA

SU-SU-SU

Necha marta qarsak ovozini eshitsangiz, shuncha SA bo'g'inini talaffuz qiling  
Shu tartibda so, si, se, so' bo'g'lnlari talaffuz etiladi.

### “So’zlarni to’ldirning” o’yini



### Amaliy mashq

“Rasmlarni nomlang” mashqi Ta’limiy o’yin kiritish

Bolalarga oldilaridagi rasmlarni nomlash va “s” tovushini to’g’ri talaffuz qilish, so’zni bo’g’inga bo’lish kabi topshiriqlar beriladi. Bolalar so’zda necha bo’g’in bo’lsa , shuncha marta chapak chaladilar.

### Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar :

- Bugun qaysi tovush bilan tanishdik?
- U qanday tovush ekan?
- Tovushni nima qilamiz? (eshitamiz)
- Biz tovushlarni nima uchun o’rganamiz?”
- “s” tovushi ishtirok etgan so’zlarni ayting.
- Qaysi transportning nomida “s” tovushi bor? (samolyot-rasmlar asosida)
- Qaysi sabzovotning nomida “s” tovushi bor? (sabzi)
- Qaysi jihozning nomida “s” tovushi bor? (sandiq)
- Qaysi hayvonning nomida “s” tovushi bor? (sigir)
- Qaysi qushning nomida “s” tovushi bor? (sava)

<b>MUNDARIJA</b>		
	<b>Kirish</b>	3
	Nutq o'stirish va savodga tayyorgarlik bo'yicha taqvim reja	4
1	«Mustaqillik bayrami» nomli surat asosida hikoya tuzish. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	7
2	“Lolaning bog'chadagi birinchi kuni” mavzusida ijodiy hikoya tuzish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	8
3	“Quvnoq tilcha”ertagi	10
4	Asarni qayta hikoya qilish “Bo’ri bilan echki” o’zbek xalq ertagi Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	12
5	“S” tovushini to’g’ri talaffuz qilish	14
6	Asarni qayta hikoya qilish “Ikki echki” o’zbek xalq ertagi Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	16
7	Nutqda nafas olish va nafas chiqarishni rivojlantirish	17
8	“Olma terimida” surati ustida suhbat Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	18
9	“Quvnoq tilcha”ertagi	19
10	“Kuzda kishilar mehnati” surati ustida suhbat Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	21
11	Rasmlarni nomlash (“S” tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish	22
12	Suratlar bo'yicha hikoya qilish: “Uy hayvonlari” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	23
13	Asarni qayta hikoya qilish «Sanobar» hikoyasi	25
14	Nutqda nafas olish va nafas chiqarishni rivojlantirish	26
15	Shaxsiy taassurotlar bo'yicha hikoya tuzish. “Bizning o'yinchoqlarimiz” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	27
16	Asarni qayta hikoya qilish «Quyon va tipratikan» masali	28
17	Jamoa hayotidan hikoya tuzish. “Bizning jonli burchagimiz” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	30
18	“Z” tovushini to’g’ri talaffuz qilish	31
19	Asarni qayta hikoya qilish «Sher bilan sichqon» ertagi	32
20	Rasmlarni nomlash (“Z” tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish	34
21	Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish: “Bizning oila” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	36
22	“Sh” tovushini to’g’ri talaffuz qilish	37
23	Asarni qayta hikoya qilish. “Tulki bilan Turna” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	39
24	Asarni qayta hikoya qilish «Non isi» rivoyati	40
25	“Qish” mavzusida tasviriy hikoya tuzishga o'rgatish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	41
26	Asarni qayta hikoya qilish «Terak bilan majnuntol» masali	43
27	Ijodiy hikoya tuzish: “Tanlangan o'yinchoqlar bo'yicha hikoya	44

	tuzish” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	
28	Rasmlarni nomlash (“Sh” tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish	46
29	Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish “Dam olish kuni” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	47
30	Asarni qayta hikoya qilish. T. Rasulov “Shaftoli”hikoyasi Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	48
31	“T” tovushini to'g'ri talaffuz qilish	50
32	Surat bo'yicha hikoya tuzish. “Tish yuvish odobi” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	51
33	Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish “Men qish bayramini qanday o'tkazdim?” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	53
34	“D” tovushini to'g'ri talaffuz qilish	54
35	“14-yanvar-Vatan himoyachilari kuni” surati asosida hikoya tuzish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	56
36	Rasmlarni nomlash (“D” tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish	58
37	M.Murodovning “Ikki niyat” hikoyasi asosida qayta hikoya qilish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	59
38	“Dasturxon odobi” surati bo'yicha hikoya tuzish	59
39	Shaxsiy hayot (tajriba)dan hikoya tuzish “Men qushlarni ovqatlantirdim”	61
40	Asarni qayta hikoya qilish. “Tulki bilan qizcha” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	62
41	A.Avloniyning “Bolari va pashsha” asarini qayta hikoya qilish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	64
42	“R” tovushini to'g'ri talaffuz etish	65
43	Gulxaniyning “Toshbaqa va chayon” asari asosida qayta hikoya qilishga o'rgatish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	67
44	A.Navoiyning “Sher bilan Durroj” asari asosida qayta hikoya qilish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	68
45	Jamoa hayotidan hikoya tuzish. “Bizning bog'cha” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	69
46	Asarni qayta hikoya qildirish. “Alisher va bulbul” rivoyati Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	70
47	Rasmlarni nomlash (“R” tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish	71
48	Surat bo'yicha hikoya tuzish. “Qo'l yuvish odobi” Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	72
49	“K” tovushini to'g'ri talaffuz etish	74
50	O'rol Tansiqboevning “O'zbekistonda bahor” suratini ko'zdan kechirish Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	75
51	Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish: “Onamlarning bayrami”	77

52	R.Azizzxo'jaevning "Oyijon" hikoyasi asosida asarni qayta hikoya qilishga o'rgatish. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	78
53	Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish. "Men Navro'z bayramini qanday o'tkazdim?" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	80
54	Rasmlarni nomlash ("K" tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish	80
55	Jamoa hayotidan hikoya tuzish: "Bog'chamdag'i yoqtirgan o'yinlarim" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	82
56	Mazmunli suratlar asosida hikoya tuzish. "Bahorda kishilar mehnati?" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	83
57	"Ch" tovushini to'g'ri talaffuz etish	84
58	M.Murodovning "Ikki xil yordam" hikoyasi asosida asarni qayta hikoya qilish. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	85
59	Surat bo'yicha hikoya tuzish. "Metroda" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	86
60	Rasmlarni nomlash ("Ch" tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish	87
61	"Fil bilan xo'roz" o'zbek xalq ertagi asosida hikoya qilishga o'rgatish	88
62	Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish. "Tug'ilgan kun" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	89
63	"F" tovushini to'g'ri talaffuz etish	90
64	Asarni qayta hikoya qilish Yashar Xondamir "Qalam" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq "Terak bilan Majnuntol" rivoyati asosida asarni qayta hikoya qilishga o'rgatish. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	92
65	Shaxsiy hayotdan hikoya tuzish. "Men dadamga yordamchi?" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	93
66	Rasmlarni nomlash ("F" tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish	93
67	Maxmud To'ychievning "Zarg'aldoq" hikoyasini qayta hikoya qilishga o'rgatish	95
68	"H" tovushini to'g'ri talaffuz qilish.	95
69	Shaxsiy hayot (tajriba)dan hikoya tuzish "Tsirkda" Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	97
70	Rasmlarni nomlash ("H" tovushi) va ular ishtirokida gap tuzish	98
71	Jamoa hayotidan hikoya tuzish: "Gulzorlarimizdagi gullarni qanday etishtirdik. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	100
72	"Asalari hech narsa demabdi" hikoyasi asosida qayta hikoya qilishga o'rgatish. Savodga tayyorlash bo'yicha amaliy mashq	101
73	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	103

*Zokirjon Admin bilan  
+99891-328-88-38 nomerga murojaat  
qilishingiz yoki shu nomerdagi telegram orqali  
bog'lanishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob  
beriladi*

**Katta guruhlarga nutq o'stirish faoliyat  
ishlanmalarini to'liq holda olish uchun  
telegramdan yozing.**



**Narxi: 10 ming so'm**

Telegram kanalimiz:  
**@maktabgacha\_tt**

To'lov uchun: **UZCARD \*880\*8600 0201 6485 8693\*summa#**  
**Nabiyev Zokirjon plastik egasi**



#### DIQQAT!!!

Sizga buni **omonat** qilib beramiz.  
Buni to'liq holda olganingizdan so'ng:  
Faqat o'zingiz uchun foydalaning.  
Hech kimga bermang Hattoki eng yaqin  
insoningizga ham  
Kanal va gruppalarga tarqatmang.  
**Omonatga hiyonat qilmang**